



The portrayal of court women in historical novels and the writer's approach to them

Sevara USMANOVA¹

Fergana State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 25 January 2025

Available online

15 February 2025

Keywords:

Timurids,

East,

"Famous Wives",

"Fakhr an-nisa",

"Hakim sind bot",

"Zubdat ul-tavarikh

Boysunguri",

"Zafarnama",

"Ajoyib al-makdur fi tarikhi

Taimur",

"Baburnama".

ABSTRACT

This article analyzes the artistic interpretation of reality associated with court women in historical novels and the writer's approach to this subject. The portrayal of society, politics, and cultural life through the image of court women is examined from a scientific perspective. Although the surviving written sources do not provide a comprehensive and detailed account of the lives and activities of women from the upper class, the information gathered from these sources allows us to illuminate the complex fate of high-society ladies. Their stories reflect all the peculiarities and contradictions of their families and era – encompassing joy and anxiety, splendor and humiliation, prestige and vulnerability.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1-pp146-155>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Tarixiy romanlarda saroy ayollari bilan bog'liq voqelik va yozuvchi munosabati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Temuriylar,

Sharq,

"Mashxur xotunlar",

"Faxr an-niso",

"Hakim sind bot",

"Zubdat ul-tavorixi

Bo'ysung'uriy",

"Zafarnoma",

"Ajoyib al-makdur fi tarixi

Taymur",

"Boburnoma".

Mazkur maqolada tarixiy romanlarda saroy ayollari bilan bog'liq voqelikning badiiy talqini va yozuvchining unga bo'lgan munosabati tahlil qilinadi. Saroy ayollari obrazi orqali jamiyat, siyosat va madaniy hayotning aks ettirilishi ilmiy nuqtayi nazardan o'rganiladi. Maqolada bizgacha yetib kelgan yozma manbalarda oliy tabaqaga mansub ayollarning hayoti va faoliyati butun tafsilotlari bilan ochiq-oydin yoritilmagan bo'lsa-da, biroq ulardan terib olingan ma'lumotlar yuqori tabaqa xonimlarining oilasi va davrining barcha o'ziga xos jihatlari va qarama-qarshiliklarini o'zida aks ettirgan quvonch va tashvish, dabdaba va xo'rlik, obro-e'tibor va zabunlik to'la taqdirini yoritish imkonini beradi.

¹ PhD, Associate Professor, Fergana State University. E-mail: mahkamovasevara078@gmail.com

Реальность, связанная с придворными женщинами в исторических романах и отношение писателя

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Тимуриды,
Восток,
«Знаменитые жены»,
«Фахр ан-ниса»,
«Хаким синд бот»,
«Зубдат уль-таварих
Бойсунгури»,
«Зафарнаме»,
«Аджойиб аль-макдур фи
тариhi Теймур»,
«Бабурнаме».

В статье анализируется художественная интерпретация действительности, связанной с придворными дамами в исторических романах, и отношение к ней писателя. С научной точки зрения изучается отражение общества, политики и культурной жизни через образ придворных дам. Хотя дошедшие до нас письменные источники не освещают ясно жизнь и деятельность женщин высшего сословия во всех подробностях, почерпнутые из них сведения позволяют нам осветить полную судьбу женщин высшего сословия, полную радости и беспокойства, роскоши и унижения, престижа и угнетения, отражающую все специфические стороны и противоречия их семьи и эпохи.

KIRISH

Xalqimiz davrining eng nurafshon davri-Temuriylarga daxldor bo'lgan manbalar bir muncha keng o'rganilmoqda hamda bu davrga oid ilmiy va badiiy asarlar dunyo yuzini ko'rdi. Kishilik shakllanib ilmu irfonga qadam qo'ygandan beri ijtimoiy faolyatning hech bir sohasi yo'qki, unda ayollarning ham nomi zikr etilmasin. Bu gap sharq ayollariga ham butkul tegishli. Tarixiy manbalarda nomlari tilga olingan ayollardan yetishib chiqqan davlat arboblari, otashin vatanparvarlar, ilm-manfatni yuksak qadrlagan mashxur olimlar, so'z san'atining iftixori bo'lgan iste'dodli shoirlar fikrimizning yorqin dalilidir.

Islom tamadduni keng tarqalgan Sharq mamlakatlarida shariat va din hech qachon ayollarning ma'rifatiga ilm olishga intilishini cheklab qo'ymaganligi bois, har bir tarixiy davrda yashab o'tgan va ilm-fanning turli sohalarida, adabiyot va san'atda, davlat va ijtimoiy boshqaruvda nufuzli martabalarga erishgan ayollar nomini sanab o'tishimiz mumkun.

Shu o'rinda yuqoridagi fikrlarni tasdiqlovchi, qimmatli manbalardan biri, Rizouddin Faxriddin o'g'lining "Mashxur xotunlar" (tarixda nomi chiqqan ayollar) nomli tazkira janriga oid asarida nomlari keltirilgan 550 nafar dunyoning to'rt mintaqalarida yashab o'tgan mashxur ayollarning tarixi qalamga olingan [1]. Tazkira tuzilmasiga ko'ra sharq xalqlari tarixida sezilarli iz qoldirgan mashhur ayollarning nomlari zikr etilgan. Ular orasida payg'ambarlar avlodiga aloqador ayollar, qolaversa ular orasidan yetishib chiqqan shoirlar, sohoba ayollar, mufossiralar, faqihalar, hadis ilmi bilimdonlari, mudarrisalar, mug'oniylar va boshqa soha vakillarining nomlari tilga olingan. Masalan, Bag'dod shahrining yirik madrasalaridan birida mudarrislik qilgan va ma'ruzalar o'qilgan olim Nasr ibn Ahmadning qizi Shaxdaga "Faxr an-niso" (ayollar iftixori) degan olim unvon berilgan. U ko'pkina ilmlar sohibasi, hadislar bilimdoni, husnixatda o'z mahoratini namoyon eta olgan. Shu bois, unga "Shahdatul-kotiba" degan e'tiroflar berilgan. U bu ilmlarni egallash uchun zamonasining mashhur olimlaridan tahsil olgan. Bundan tashqari, u fiqx va tavhid ilmiga bag'ishlangan asarlar muallifi hamdir. Yoki, Abdulvahob

ibn Umarning qizi Uzasira mashhur shayxlar qo'lida tahsil olib, ular qo'lida mudarrislik qilish huquqini beruvchi hujjat olib "Sit al-quddat" (shariat qozisi) unvoniga sazovor bo'lgan.

Tazkirada muallif turon zaminda yetishib chiqqan temuriy malika Amir Temurning qizi Sultonbaxt boburiy malikalardan Hamidabonu haqidagi ma'lumotlarni keltirib o'tadi.

Yoki Eron adabiyotining shox asarlaridan biri, "Hakim sind bot kitobi" bo'lib, u adabiyot tarixida "Sind botnoma" yoki "Zuzaroi sab'a", "Kitobi makruniso" (Xotinlar makri kitobi) kabi nomlar bilan atalib kelgani [2]. Asar turli hikoyalardan iborat bo'lib, ulardan ayollarning turli yo'sinda donolik aql bilan muommalarni hal qilganligi xususida so'z boradi. Asar Zaxriy Samardaniy qalamiga mansub bo'lib, Paxnaviy tilidan tarjima qilingan tasavvuriy asardir. Asar asosan Samoniy Xuroson va Movaraunaxrda xalifalik tomonidan hukumronlik qilgan sulolalar davrida yaratilgan.

Yurtimiz davrida ham saklarning afsonaviy malikasi va lashkarboshisi To'maris, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar nazariga tushgan falakiyotshunos olimi Munajjima, shoirlar Mehri va Bediliy kabi shuhrat va hurmat qozongan ayollarni tilga olishimiz mumkin. Ayollar olamidan yetishib chiqqan temuriy malikalarning ham tarixda tutgan o'rni beqiyosdir.

Darhaqiqat, har qanday saltanat tarixda, ayniqsa, uning bosh rahbarining tarix sahifasida ma'rifatparvar va bunyodkor yoxud zolim va xiyonotkor sifatida nom qoldirib ketishida amirzoda va shahzodalarni dunyoga keltirgan malikalar, xos kanizaklar hatto xaram xizmatida yurgan cho'ri xizmatkorlarning ham xissasi katta ekanini e'tirof etmay bo'lmaydi. Bizgacha yetib kelgan tarixiy manbalarda tarix sahifasining sirli qismini tashkil etgan saroy ayollari-malikalar, nufuzli oilalar vakillari, xos kanizlarning taqdiri, ularning saroy muhitida, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni, adabiyot, san'at, me'morchilikni rivojlantirish xizmatlari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjudki, ularni o'rganish ham alohida ilmiy tadqiqot uchun qiziqarli mavzudir. Bizgacha yetib kelgan yozma manbaalarda oliy tabaqaga mansub ayollarning hayoti va faolyati butun tafsilotlari bilan ochiq oydin yoritilmagan bo'lsa-da, biroq ulardan terib olingan ma'lumotlar yuqori tabaqa xonimlarining oilasi va davrining barcha o'ziga xos jihatlari va qarama-qarshiliklarini o'zida aks ettirgan quvonch va tashvish, dabdava va xo'rlik, obro-e'tibor va zabunlik to'la taqdirini yoritish imkonini beradi.

Ko'xna tariximiz saxifalarini varaqlar ekanimiz, bizga faxr va iftixor tuyg'usini beruvchi temuriy malikari, ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Bu sulolaning jahon tarixida keng e'tirof etilgan muhim o'rnida, shubhasiz, oliynasab malikalarning ham o'rni katta. Amir Temurning umr yo'ldoshi, temuriylar saroyining bosh malikasi Bibixonim (Saroymulk xonim), Shohruh Mirzo ning sevimli xotini mag'rur va qat'iyatli Gavharshoxbegim, Milkatxonim, Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoning opasi Xonzodabegim, qizi Gulbadanbegim, Umarxonning umr yo'ldoshi Nodirabegim, Hindistonda hukumronlik qilgan boburiyzoda Avrangzebning qizi Zebuniso begim shular jumlasidandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning hayoti, markazlashgan davlat qurish yo'lidagi faolyati va davlat boshqaruv tizimini, uning vafotidan keyin temuriylarning toj-taxt uchun olib brogan kurashlarini yoritishga bag'ishlangan tarixiy manbaalar, ular asosida yaratilgan ilmiy, qolaversa badiiy asarlar talaygina. Ushbu tarixiy voqealar bayonida temuriy malikalar va oliynasab ayollar taqdiri, ularning farzandlar

tarbiyasida, saroy muhiti, o'z davri ijtimoiy hayotida tutgan o'rni muarrixlar e'tiboridan chetda qolmagan, albatta. Bu borada, jumladan, Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" [3], Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" [4], Ibn Arabshoxning, "Ajoyib al-makdur fi tarixi Taymur" [5], Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" [6], Xurshox ibn Qudobning "Tarixi elchi Nizomshox" [7] kabi nodir qo'lyozma manbalarni, shunindek xorijiy mualliflardan ispanyalik elchisi Rui Gonsales de Klavixoning, "Samarqandagi Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi" [7] va venger olimi va sayohi Xerman Vamberning, "Buxoro yohud Movarounnahr tarixi" [8] kabi tarixiy manbalar, B. Axmedov, A. Ziyoy, T. Fayziyev, P. Ravshanov kabi olimlarning tadqiqotlari, M. Shayxzoda, P. Kodirov, M. Ali, va boshqa birqator olimlar va yozuvchilarning asarlarida bu mavzuga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Amir Temur va temuriylar davri tarixi haqida, shunindek bizni qiziqtirgan mavzu haqida bir muncha keng va qimmatli ma'lumotlar beruvchi dastalbki manbalardan biri Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayin va majmai baxrayn" (Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning quyulish joyi) asaridir. "Matlai sa'dayin"dagi ma'lumotlarning qimmati va ishonchliligi XV–XVI asrlardayoq tarixchilarning e'tiborini o'ziga qaratdi va ularning asarlari uchun manba vazifasini o'tadi, tarixsevar o'quvchilarning yuqori bahosiga sazovor bo'ldi.

Bizgacha Abdurazzoq Samarqandiyning faqat shu asari yetib kelgan. Garchi uning kichik zamondoshi tarixchi Xondamir uning boshqa asarlari ham bo'lganligi haqida xabar bersa-da, u ham faqat "Matlai sa'dayin"ning nomini keltiradi.

Asar ikki jildidan iborat. Birinchi jild boshqa tarixiy manbalar materiallari asosida, xususan Xofizi Abro'yning "Zubdat ul-tavorixi Bo'ysung'uriy" asari asosida yozilgan bo'lib, Amir Temurning markazlashgan davlat tuzish uchun olib brogan kurashlari bilan bog'liq voqealar bayoniga bag'ishlangan va 1394–1405-yillar voqealarini qamrab olgan.

Asarning ikkinchi jildi Amir Temur vafotidan keyin u barpo qilgan ulkan hududdagi davlatda sodir bo'lgan voqealar, temuriylarning taxt uchun kurashlari bayoniga bag'ishlangan bo'lib, uch qismdan iborat. Birinchi va ikkinchi qismlarda Shohruh Mirzo hukumronlik tarixiga oid voqealar qalamga olingan. Birinchi qism 1405-1428/29 yillar voqealarini, ikkinchi qism 1428/29-1447 yillar voqealarini o'zida jamlagan. Asar uchunchi qismi 1447-yildan to 1470-yillarga qadar sodir bo'lgan voqealar bayoniga bag'ishlangan. Ma'lumki, bu davr temuriylar hukumronligi tarixida Samarqandda Ulug'bek Mirzo va Xurosonda Shohruh Mirzo ning uzoq davom etgan va nisbiy barqarorlikda kechgan hukumronligidan keyin yuzaga kelgan suronli voqealar va taxt vorislarining tez-tez almashinuvida kechdi. Bu suronli davrda Xurosonda Xirot taxtini so'nggi temuriylardan biri Sulton Husayin Bayqaro egallagandan keyin davlatning siyosiy-ijtimoiy hayotida biroz osoyishtalik o'rnatildi va bunda buyuk shoir va davlat arbobi Alisher Navoiyning ham xizmatlari katta bo'ldi. Muallif asarning bu qismida bayon qilingan ko'p tarixiy voqealarning bevosita guvohi bo'lgan va o'zi ham ularning ayrimlarida shaxsan ishtirok etgan.

"Matlai sa'dayin" o'rta asr fors tilida yozilgan. Abdurazzoq bu asarni asosan 1467–1470-yillar orasida yozib tamomlagan. O'rta asr tarixiy adabiyotining ushbu durdonasi bilan o'quvchilar uning o'zbek tiliga amalga oshirilgan tarjimasi bo'yicha tanishish imkoniga egadirlar. Asarning ikkinchi qismini fors tilidan hozirgi zamon o'zbek tiliga tarjima qilib, unga keng so'z boshi yozgan va unga tegishli izohlar bilan ta'minlab nashrga tayyorlagan sharqshunos olim, tarix fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi fan

arbobi Asomiddin O'rinboev o'z ilmiy faolyatining katta qismini Abdurazzoq Samarqandiy va uning asari tadqiqiga bag'ishladi. Asarning aynan mana shu qismi, olimlar fikricha, ayniqsa, qimmatli va orginaldir. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, bu qimmatli tarixiy manbaning ayrim ma'lumotlari XIX–XX asr yevropa tarixiy adabiyotida o'z ifodasini topdi, uning ayrim qismlari fransuz, ingliz, rus va ayrim boshqa tillarga tarjima qilindi. Biroq dastlabki to'liq ilmiy tarjima o'zbek tilida amalga oshirildi [9].

Asarda Xuroson va Movarounnaxrda ro'y bergan asosiy tarixiy voqealar hijriy yil hisobida solnoma tarzida yilma-yil bayon etilgan. Bu yillar boblarning nomidayoq ko'rsatilgan. Masalan: "Sakkiz yuz ellik to'rtinchi (1450) yil voqealari" va h.k. Boblar o'z ichiga yana shu yili sodir bo'lgan ayrim voqealarga bag'ishlangan kichik-kichik fasllarga bo'linadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Muallif hayoti va faolyatiga to'xtalib o'tsak. Uning to'liq qismi Kamoluddin Abdurazzoq, otasining ismi Jaloluddin Isxoq Samarqandiydir. Abdurazzoq Samarqandiy 1413-yil 7-noyabrda Hirot shahrida tug'ilgan. 1482-yilda shu shaharda vafot etgan. Uning "Samarqandiy" nisbasi bilan shuhrat topganiga kelsak, otasi Jaloluddin Isxoq asli Samarqandlik bo'lib, temuriylar saroylarida nufuzli lavozimlarni egallagan va keyinchalik Hirotga hizmat yuzasidan kelib qolgan. Aniqrog'i Shohruh saroyida mulozimlikda bo'lib, shox o'rdasi (lashkarida) imomlik va qozilik lavozimida ishlagan. Abdurazzoq Samarqandiyning o'zi ham keyinchalik hizmat yuzasidan Samarqandda bir necha marta bo'lib, bu yerda uzoq vaqt turgan vaqtlari ham bo'lgan. Muallif asarida o'zi haqida maxsus ma'lumot keltirmaydi, balki ayrim voqealar bayoni davomida ular bilan bog'liq holda bu haqda ayrim ishoralarni uchratishimiz mumkin. Masalan. Asarning bir o'rnida o'zi haqida, diniy ilmlarni taxlil qilish asnosida" degan ishoradan ko'rinadiki, u Hirot madrasalarida taxsil olgan. Ma'lumki, bu davrda Hirotga bo'lajak tarixchining madrasa ta'limini olishi uchun butun sharoitlar mavjud edi.

Nufuzli davlat lavozimlarida bo'lgan otasi, o'z davrining ma'rifartli kishilari sifatida tanilgan akalari yordamida Abdurazzoq Samarqandiy kelajakda sinchikov tarixchi bo'lishga, Shohruh Mirzo saroyida yuqori lavozimlarni egallashga loyiq bilim egasi bo'lib yetishadi. Madrasa ta'limini yakunlagach, 24 yoshli (1437/1438) yosh tolibi ilm temuriylar saroyiga xizmatga taklif qilindi. Hayotida sodir bo'lgan bu voqeaning tafsilotlarini tarixchi o'z asarida ancha to'liq bayon etadi: u mashhur arabshunos olimlardan birining arab tili grammatikasiga izoh yozib, uni Shohruh Mirzo ga bag'ishladi va saroy majlislaridan birida uni hukumdorga topshirdi. Yosh olimning ishi bilan tanishgan Shohruh uni shaxsan sinovdan o'tkazdi va diniy masalar bo'yicha maslahatchi lavozimiga tayinlanadi. Ikki yil o'tib, saroydagi hasadgo'ylar Abdurazzoq Samarqandiy egallab turgan lavozimiga loyiq bilimga ega emas degan gap tarqatdilar. Shunda Shohruh Mirzo Hirotning taniqli fiqxshunoslari va saroy a'yonlari hozirligida shariat masalalari bo'yicha uni imtixon qildi. Bu imtixon Abdurazzoqning o'z tengdoshlari o'rtasida ancha yuqori bilimga ega ekanini isbotlab berdi. Shundan so'ng bo'lajak tarixchi temuriylar e'tiborini o'ziga yanada kuchliroq qaratdi, ularning ishonchini qozondi va davlat ishlarida ham faol qatnasha boshladi, Shohruh Mirzo topshirig'iga ko'ra diplomatik va elchilik aloqalariga oid ishlar bilan ham shug'ullandi. 1442-yilning yanvaridan to 1444-yilning dekabrighacha Shohruh Mirzo topshirig'i bilan Abdurazzoq Samarqandiy Janubiy Hindistondagi port shahar Kal'kutaga va Vijayanagar davlatiga diplomatik topshiriq bilan borgan elchilarga boshchilik qildi. Keyinchalik ham ayrim davlatlarga elchi qilib

yuborildi. Abdurazzoq Shohruh Mirzo ning vafotidan keyin ham davlat ishlarida faol ishtirok etdi, Xuroson bilan boshqa davlatlar o'rtasida hamda temuriylar o'rtasida turli masalarga tegishli diplomatik yozishmalarni olib borishda qatnashib keldi.

1451-yilda Xuroson davlati poytaxti Hirotida taxtni Abdulqosim Bobur egallagach, bu davrga kelib, davlatning nufuzli davlat arboblardan biri sifatida tanilgan Abdurazzoq Samarqandiy uning hizmatida bo'ldi, safarlarida unga hamroxlik qildi. Taft shahriga qilingan safarlardan birida tarixchi, „Zafarnoma“ ning muallifi Sharofiddin Ali Yazdiy bilan uchrashdi. Taxtni Abu Said Mirzo egallagach, Yoshi elliklarga borib qolgan Abdurazzoq 26 yillik xizmatdan keyin saroy ishlaridan uzoqlashdi. Saroydagi baland mansablar tarixchiga moddiy naf keltirmadi. Bu haqda tarixchining o'zi 867-yil (1462/1463) voqealariga bag'ishlangan bobda shunday xabar beradi: „Shu yili (ushbu) varaqlarni (yozib) to'plovchi Abdurazzoq ibn Isxoq tiriklik tansiqligidan biroz shikoyat qilib yurgan edim, dorussaltana Hirotning akobir va ayonlari humoyun (Shohruh) honaqohining shayxlik mansabi bu faqriga topshirilishini durust maslahatdan, deb topdilar. Uchinchi jumod al-avval (1463-yil 24-yanvar) yakshanba kuni amirlar, vazirlar va axoli tashrif buyurib yeg'ildilar va shayxlik mansabini (menga) topshirdilar [10]. Bu kamtarona lavozim Abdurazzoq Samarqandiyga turmush kechirish uchun biroz mablag' keltirdi va hu bilan birga temuriyzodalarning hukumronlik uchun olib borgan muttasil kurashlaridan, siyosiy tala- to'plaridan, fitna to'la saroy muhitidan uzoqlashish, osoyishta ijod qilish imkonini berdi. U o'z nomining tarix sahifalarida abadiy muhrlanib qolishiga sabab bo'lgan. „Matlai sa'dayn“ asarini yozishga kirishdi va bu ishni muvaffaqiyatli yakunladi.

Asarda o'rni bilan matn mazmunini to'ldirib yoki izohlab keladigan ko'plab Qur'on oyatlari, hadislar keltrilgan, shuningdek boshqa shoirlarning va mualliflarning o'z ijod namunalaridan misollar berilgan. Bu she'riy namunalar, bir tomondan, muallifning o'zi ham iste'dodli shoir bo'lganidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan, uning adabiyot tarixi va diniy ilmlardan yaxshi xabardor bo'lganini ko'rsatadi. Hajman yirik bo'lgan bu asarda temuriy malikalarga alohida bob yoki qism ajratilmagan bo'lsada, voqealar rivojida ular haqida ko'plab ma'lumotlar keltrilgan.

Asar sahifalarida Gavharshodbeginning ismi eng ko'p uchraydiki, bu yana bir bor malikaning o'z davri tarixiy voqealarida yetakchi o'rin egallaganini isbotlaydi.

Temuriylar xonadoniga mansub malikalar va oliynasab ayollar haqida gap ketar ekan, bu ajoyib hilqatning sardori, Amir Temurning umr yo'ldoshi, o'zining yuksak idroki, farosati, aql-zakovati, husn-latofati bilan sohibqironning alohida hurmatiga sazovor bo'lgan, uning tomonidan „katta xonim“ yoki, „Bibixonim“ unvoniga noil bo'lgan Saroymulk xonimni tilga olmaslikni iloji yo'q. Tarixiy manbalarda aytilishicha, Amir Temur markazlashgan davlat tuzib, uni yetti yil boshqargach, qolgan vaqtlarini ko'proq poytaxtdan yiroqda, davlat chegarlarini kengaytirish va mustahkamlash uchun kechgan jangu jadallarda o'tkazdi, bu davrda davlat ishlarini rasman tayinlangan hokimga topshirar ekan, shu bilan birga aqlu zakovatda tengsiz Saroymulk xonimning tadbirkorligi, oqilligi, zukkoligiga ham qattiq ishonar edi. Bu bilan sohibqiron malikaning boshqaruv ishlaridagi o'rnini ham belgiladi.

Bibixonim nomi tarix sahifalaridan temuriylar davri ilmi va maorifi rivojiga hissa qo'shgan malika sifatida ham o'rin olgan. Uning homiyligida Samarqandda bir nechta madaniy – ma'rifiy inshootlar barpo qilingan. Jumladan, bunday inshootlardan biri Bibixonimning o'z mablag'lari hisobidan qurilgan madrasa edi. Madrasa barpo qilishni

rejalashtirgan malika Amir Temurdan ijozat so'raydi. Hukumdorning roziligini olgach, madrasa qurilishiga sarflaydi va mohir ustalar ishtirokida madras ani bunyod etadi. Uning yonida esa jome masjidini ham qurib bitkazdi.

Ammo sohibqironning vafotidan so'ng Bibixonim toj-taxt uchun kurashda faqat o'z manfaatlarini ko'zlagan va bu yo'lda har qanday razillikdan qaytmagan temuriy shahzodalarning e'tiboridan chetda qoldi. Tarixchi Ibn Arabshohning bergan ma'lumotlariga ko'ra, temuriylar saroyining birinchi malikasi Bibixonim Amir Temurning nabirasi shahzoda Halil Sulton Mirzoning xotini Shodi Mulk tomonidan zaharlab o'ldiriladi. Vaholanki, u Halil Sulton tarbiyasiga katta hissa qo'shgan, Shodi Mulkka ham mehr-muhabbat ko'rsatgan inson edi.

Saroymulk xonim (Bibixonim) nufuziga ko'ra, Temuriylar sulolasining buyuk malika bo'lgan, albatta, ammo u yagona bo'lmagan. Tarixiy manbalarda Amir Temur va temuriy shahzodalarga qarashli ayrim boshqa malikalarning ham saroy hayoti va davlat boshqaruvdagi o'rni va ishtiroki haqida ma'lumotlarni uchratish mumkun. Bu ma'lumotlarni tasdiqlovchi manbalardan biri Ispanya elchisi Rui Gonsales de Klavixoning kundaliklaridir. U 1403–1406-yillari Amir Temur saltanati va uning shukuhli poytaxti Samarqandda bo'lib, bu yerdagi saroylarda bo'lib o'tgan shoxona bazmlarga bir necha bor taklif qilingan va bunday tashriflar paytida bazmlarda hukm surgan va o'zi bevosita shohidi bo'lgan ko'zlarni qamashtiruvchi dabdaba va amal qilgan tartib-qoidalar bilan bir qatorda, hukumron tabaqa vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, saroy hayotida ayollarning ishtiroki haqidagi o'z kuzatuvlarini ham qalamga olgan. Ayniqsa, saroy malikalari hamda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni haqida e'tiborga molik ma'lumotlarni keltirgan. U saroyda bo'lib o'tgan bazmlardan biri haqida shunday yozadi: 1404-yilning 23-sentabrida podsho (Amir Temur) Bog'i Dilkushoda katta bazm berib, elchilarni ham unga taklif qildi. To'yga ko'p mehmonlar kelishdi ... rosa o'yin kulgi, xursandchilik bo'ldi. Podshoning xotinlari, avvalgi to'ylardagi singari yasantusan kiynishib bazmda hozir bo'ldilar, erkaklar bilan o'yin kulgu qildilar [11].

Shu o'rinda yana bir temuriy malika – Milkat og'a (asl ismi Mulk og'a bo'lgan) haqida to'xtalib o'tish lozim. Milkat og'a o'z davrining nufuzli kishilardan biri bo'lgan Xizr o'g'lonning qizi bo'lgan. U avval Amir Temurning ikkinchi o'g'li Umarshayx Mirzoga turmushga chiqqan va undan ikki o'g'il farzand ko'rgan. Umarshayx Mirzoning bevaqt o'limidan so'ng, sohibqiron bu kelinini nihoyatda hurmat qilganligi va qadrlaganligi bois, uni 26 yoshida 18 yoshli Shohruh Mirzo o'z nikohiga oladi. Milkat og'a undan ham ikki o'g'il (Jahonshoh va Suyurg'atmish) farzand ko'radi. Shohruh Mirzo Amir Temurning to'rtinchi o'g'li bo'lib, hukmdorning vafotidan so'ng poytaxti Hirot bo'lgan Xuroson o'lkasiga uzoq yillar davomida hukmronlik qiladi. Uning deyarli qirq yillik hukmronligi o'lkada nisbatan tinchlik va osoyishtalik hukm surgan davr bo'ldi, saroy kutubxonasi ancha kengaydi, obodonchilik ishlari rivojlandi. Bu ishlari Milkat og'a begim ham hizmatlari bor. U Gavharshohbegim kabi, Hirotida bu ishlarga o'z ulushini qo'shdi. Uning homiyligida shifoxona, "Dor ul-hadis" nomli xonaqoh, ikkita hammom, rabot, Balx shahrida madrasa bino qilindi. Milkat og'a 1441-yilda vafot etgan va o'zi qurdirgan Balx shahridagi madrasa gumbazi ostiga dafn etilgan. Alisher Navoiyning e'tibori tufayli u barpo qilgan ayrim inshootlar asr oxiriga qadar obod bo'lib turgan.

Sharq mamlakatlari tarixiga oid XIV–XVI asrlarda yaratilgan bir qator yozma manbalarda Temuriy Mirzo va malikalar hayotiga doir ko'plab malikalar uchraydi. Bu manbalar orasida xronolgik jihatdan tarixiy voqealar bayon etilgan, Fasx Axmad ibn Jaloliddin Muhammad al-Havofiy qalamiga mansub "Mujmali Fasxiy"ning o'zgia xos o'rni bor.

Bu asar tahliliga oid ma'lumotlar akademik D.Yusupova tomonidan fors-tojik tilidan rus tiliga tarjima qilingan va Fosix Ahmad al-Havofiy. "Fasixov svod" nomi bilan 1980-yilda ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi. Asarda temuriylar shajarasining manbadagi xronologik davri 1336–1442-yillarda qamrab oladi. Aynan mazkur davrda manbada qayd etib o'tilgan Temuriy malikalar sonini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois Temuriy malikalar shajarasini, ularning nomlarini "Mujomali Fasixiy" da tilga olingan, xronologik tartibda ma'lumotlarni aniqlash imkonini berdi. Unga ko'ra, asarda tilga olingan malikalarning hayotiga oid ma'lumotlar mazmun mohiyatiga ko'ra bir necha guruhlariga ajratish mumkin. Asar muallifi, taxminan o'ttizga yaqin malikalarning nomlarini tilga olar ekan, ularning qaysi amir, shahzodalarning nikohida ekanligi, farzandlari, kelib chiqish avlodlari. Saroy malikalari orasida mavqei haqida ma'lumot beradi. Dastlab buyuk sarkarda Amir Temur shajarasini tashkil etgan, shaxsan uning haramiga, nikohiga tegishli bo'lgan nomlarini aytib o'tadi. Malikalar To'qalxonim, Dilshod og'a, Tumon og'o, Saroymulxxonim, Ruhparvarxonim va Amir Temurdan farzandlari bo'lgan ayrim xos kanizalar shular jumlasidandir.

Keyingi bosqichda Amir Temurning farzandlari Amirzoda Jahongir Mirzo nikohida bo'lgan xorazimlik malikalar Xonzodabegim, Maryamsultonbegim, Ruqiyasultonbegim, Amirzoda Mironshohga nikohlangan malikalar Xonzodabegim (Javohir Mirzo vafotidan so'ng, Mironshoh nikohiga kiritilgan) va Umarshayx nikohida bo'lgan Sevinch Qutlug' og'a, Milkat og'a vanihoyat Shohruh Mirzo nikohidagi malikalar Gavharshodbegim (Umarshayx Mirzoning vafotidan so'ng, Milkat og'a Shohruh Mirzo ga nikohlanadi).

Tarixchi olim Ashraf Ahmedov "1394-yilda Shohruh ning katta o'g'li Mirzo Ulug'bek tug'ilganda ayanan shu yili Shohruh Mirzo ning ikkinchi o'g'li (boshqa xotinidan) Ibrohim sulton tug'iladi. Ammo Ibrohim sultonning onasi kim ekanligi haqida ma'lumot yo'q ekanligi qayt etib o'tadi [12]. Fosiq Havofiy Amir Temur hayotligida va vafot etganida uning farzand nabiralarini sanab o'tar ekan, ular orasidagi ayrim malikalarning nomlarini keltirsada ayrimlarini noma'lum ekanligiga izoh beradi. Nomlari ma'lum bo'lgan malikalar orasida Amir Temurning onasi Qutlug' turkan og'a qizi, qizi malika Sulton, Baxrbegim, Mirzo Ulug'bekning qizi, malika Hasiba sulton Xonzodabegim. Jahongir Mirzoning nikohiga kiritilgan Shohruh Mirzo ning qizi malika Maryam Sulton begim, Amirzoda Mironshohning qizi malika Og'a begim, Jahongir Mirzoning qizi malika Uga begim, shahzoda Muhammad sultonning qizi malika Xonzodabegim, shahzoda Suyurg'atmishning qizi Shohruh Mirzoning nabirsai, uning yana bir nabirasi shahzoda Boysung'ur Bahodirning qizining nomlari keltirilgan. Temuriylar shajarasini tuzgan Fosix G'avofiy malikalar nomlarini bevosita temuriylar saroylarida o'tkazilgan bayram tadbirlari, to'y marosimlari bilan bog'liq. Ma'lumotlar asnosida tilga olib o'tadi. Shuningdek, malikalarning hayotlarida ro'y bergan salbiy yoki ijobiy holatlar, yoki bunyodkorlik faolyati bilan bog'liq tarixiy voqealarga oid ma'lumotlar tasvirida ularning nomlarini, ularning xizmatlari tasvirini beradi. Shajarada hatto, malikalarning davlat siyosati faolyatidagi ishtiroki, ularning vafoti, qatli bilan bog'liq sanalar bilan bog'liq, ma'lumotlar orasida ham ularning nomlari uchraydi. Yuqorida ismlari keltrilgan misollar temuriy malikalar nafaqat oilada, balki davlat boshqaruvida uning ijtimoiy hayotida anchayin baland o'rin egallaganidan guvohlik beradi.

Manbalarda Xuroson hukmdori Shohruh Mirzoning xotini va Mirzo Ulug'bekning onasi, Shohruh saroyining bosh bekasi Gavharshodbegim taqdiriga murojaat qilamiz. Ma'lumki, Gavharshodbegim o'z davrining barcha muhim voqealari markazida bo'lgan va ularga o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qilgan malikadir.

Bir qator tarixchi olimlar va yozuvchilar sobiq sho'rolar davrida ham temuriylar tarixini, ularning ayrim namoyondalarining taqdirini o'rganish va yoritishga qo'l urganlar, bu mavzuda badiiy asarlar ham yaratilgan. Ularning mualliflari asar kompozitsiyasida temuriy malikalar obrazlarini ham u yoki bu darajada yoritganlar. Masalan, G.N.Goluboyev o'zining „Ulug'bek“ nomli risolasida Ulug'bekning shaxsi, hukmronlik davri va ayniqsa, ilmiy merosi haqida keng ma'lumotlar berish barobarida, uning onasi Gavharshodbegim haqida qisqa qisqa to'xtalib o'tadi: bunda malikaning shaxsiyati, aql-u zakovatini ta'riflovchi so'zlar Ulug'bek tilidan bayon qilingan. Onasi haqida gapira turib Ulug'bek *“Onamning ismi-yu, ko'zlarigina gavhar emas, balki aqli ham gavhar ekan”* [13] – deydi. O'g'lining tilidan onaga berilgan bunday baho aqli ham, nigohi ham o'tkir qat'iyatli ekaniga ishora qiladi.

Istiqlol o'zbek xalqining shavkatli o'tmishi, qadimiy davlatchilik tarixi, umumbashariy milliy-madaniy qadriyatlarini, jahon ilm- fani rivojiga munosib hissa qo'shgan buyuk siymolarining hayoti va ijodini yanada kengroq va chuqurroq tadqiq etish, muhimi, ularga holisona baho berish uchun katta imkoniyat yaratdi. Hozirda tariximizning kam o'rganilgan sahifalarini yoritishga bo'lgan ehtiyoji avvalgidan ko'ra ham ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan ulkan markazlashgan davlat asoschisi, buyuk sarkarda Amir Temurning hukmronlik davrini, sulolaning alohida vakillarining taqdirini asl manbalar asosida o'rganish bugungi kunda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu masalani teran anglagan tarixchi olimlar bu yo'lda qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar. Bu o'rinda tarixchi olimlar bu yo'lda qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar. Bu o'rinda tarixchi olimlar B. Axmedov, A. O'rinboyev, A. Axmedov, U. Urvatovlarning hizmatlari alohida ahamiyatga egadir.

Xususan, B. Axmedovning *“Tarixdan saboqlar”* [14], *“Amir Temurni yod etib”* [15], A. Axmedovning *“Ulug'bek Muhammad Tarag'ay* [16] kabi ilmiy asarlarida Amir Temur davri bilan bog'liq ma'lumotlar zahirida temuriy malikalar Bibixonim va Gavharshodbegim haqida, qisqa bo'lsa-da, qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tganlar. Tarixchi olim Azamat Ziyoning tadqiqotlaridan biri o'zbek davlatchiligi tarixiga bag'ishlangan bo'lib, unda temuriylar sulolasi haqida, malikalar, xos kanizlar va ularning farzandlari, nabiralari haqida xronologik tartibda qimmatli ma'lumotlar keltirilgan [17].

Temuriy davri tarixiga bag'ishlangan badiiy asarlar qatorini so'nggi yillarda iste'dodli yozuvchi Shahodat Isaxonova davom etirdi. Uning ikki qismdan iborat *“Turon malikasi”* nomli tariixy romanida ulug' Amir Temur xonadoning bosh malikasi Bibixonim, malikalar Tuman og'a, Ruhparvar og'a, Kichik xonim, To'qal xonim kabi shon shuhratli malikalari qatorida, temuriylar xonadoning nufuzli kelini Gavharshodbegim obraziga ham katta o'rin ajratilgan. Bu oliy maqom ayollar hayotining yulduzli onlariyu saltanat savodosi boshlariga solgan hatarli kunlari o'sha davrning tarixiy voqealari manzarasida haqqoniy aks ettirilgan. Romanda muallif tarixiy manbalarga tayangan holda Gavharshodbegimning badiiy obrazini mahurat bilan yaratgan va uni asar kompazitsasiga ishonarli singdira olgan. Romanning bu javhalarida malikaning shaxsiy hislatlari, uning o'g'li – Movarounnahr hukumdori va olim Ulug'bek o'rtasida keyinchalik avj olgan kelishmovchiliklarni keltirib chiqargan sabablar o'zining nokiz badiiy ifodasini topgan. Ulug'bekning yoshlik yillariga bag'ishlangan asar lavhalaridan birida shunday satrlarni uchratamiz: *“Gavharshodbegim erining aksi o'laroq, qat'iyatli, shadod lekin g'oyat tadbirkor ishbilarmon aqilli ayol edi. Shu boisdanmi, Ulug'bek Mirzo onasi bilan xuddi Bibisi (ya'ni Bibixonim-muallif) kabi ochilib gaplasha olmas, salobati bosibmi,*

yo boshqa sababdanmi, tezgina suhbatga yakun yasar, otasining o'rdasida qolish imkoniyati bor vaqtlarda ham Bibixonim bilan ketishga harakat qilar edi. O'g'lining bu fe'li Gavharshodbegimning nafsonyatiga tegib, jahlini chiqarsa-da, o'zini bosar va unga bildirmas edi [18]. Sh.Isaxonova asariga yozgan so'ng so'zida adabiyotshunos-olim, tarjimon Ibrohim G'offurov muallif haqida: „Uning badiiy fantaziyasi ... Voqealikni tagi yo'q yolg'on oldi-qochdilar bilan to'ldirmaydi, ko'pirtirmaydi, voqealikni bezab-bejab ko'rsatmaydi. Tarixni lirik epkin bilan qamrab oladi va lirik nigoh bilan kuzatadi deb yozganida [19], to'la haqli edi.

XULOSA

Yuqorida sanab o'tilgan manbalar qaysidur ma'noda tanlangan mavzuning mohiyatini yoritishda xizmat qilsa, boshqa jihatdan tarixiy mavzuni yoritishning usullarini va yo'llarini ko'rsatishda uslubiy yordam berishi bilan ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rizouddin Faxriddin o'g'li. Mashhur xotunlar – Toshkent: Navro'z, 2019.
2. Zaxriy Samarqandiy. Xotunlar makri. Toshkent G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbuot birlashmasi 1992-yil.
3. Nizomiddin Shomiy. Zarafshon / Fors tilidan o'guruvchi Yunusxon Xakimjonov. Tarjimani qayta ishlab nashrga tayyorlovchi va ma'sul muxarrir Asomiddin O'rinboyev-T. O'zbekiston, 1996.
4. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma / So'zboshi, tabdil, izohlar va ko'rsatkichlar mualliflari Ashraf Axmad, Xaydarbek Bobobekov. T.Sharq, 1997
5. Ibn Arafshox. Ajoyib al-makdur fi tarixi Taymur / So'zboshi, arab tilidan tarjima va izohlar muallifi U. Uvatov. – T.Mehnat, 1992. I-II kitob.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma -T.O'qituvchi, 2008
7. Xandamova M. Tarixi elchi Nizomshox. – T. Yangi nashr, 2012.
8. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqanddagi Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar)- T. O'zbekiston, 2010
9. Xerman Bamberi. Buxoro yohud Movarounnaxr tarixi- T. 1990.
10. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayin va majmai baxrayin. II jild, birinchi qism / fors tilidan tarjima va izohlar muallifi Asomiddin O'rinboev – T. O'zbekiston, 2008: Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayin va majmai baxrayin. II jild, uchinchi qism / fors tilidan tarjima va izohlar muallifi Asomiddin O'rinboev – T. O'zbekiston, 2008.
11. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai baxrayn. II jild, uchinchi qism. 537-bet.
12. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandagi Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403 yillar),118- bet.
13. Ashraf Ahmedov. Mirzo Ulug'bek Tarag'ay (Buyuk siymolar) Toshkent, O'zbekiston 2011 3-bet.
14. Goluboev G.N.Ulug'bek. – T. Yosh gvardiya, 1962 65- bet.
15. Axmedov B. Tarixdan saboqlar- T. O'qituvchi 1994.
16. Axmedov B. Amir Temurni yod etib- T. O'zbekiston 1996.
17. Axmedov A. Ulug'bek Muhammad Tarag'ay- T. Xalq merosi 1994.
18. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchilik tarixi. Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar- T. Sharq 2000.
19. Isaxonova, Shaxodat. Turon malikasi (Tarixiy roman)- T. Kamalak-press, 2014 18-bet.